XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY TAFAKKUR VA QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK-INTEGRATIV METODIKASI

Turdiyev Azizbek Anvarjonovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0003-1076-2631

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi vositasida o‘quvchilarda milliy tafakkur va qadriyatlarni rivojlantirishning etnopedagogik-integrativ imkoniyatlari yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash, ulardagi tarbiyaviy mazmunni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq ochib berish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, folklor namunalaridan foydalanishning metodik bosqichlari, interfaol usullari va kutiladigan pedagogik natijalari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, milliy tafakkur, milliy qadriyatlar, etnopedagogika, integrativ yondashuv, xalq pedagogikasi, ma’naviy tarbiya, folklor, ta’lim metodikasi.*

Этнопедагогическая и интегративная методика развития национального мышления и ценностей у учащихся средствами устного народного творчества

Турдиев Азизбек Анваржонович,
независимый исследователь Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони.

Аннотация: *В статье раскрываются этнопедагогические и интегративные возможности развития национального мышления и ценностных ориентаций учащихся посредством устного народного творчества. Рассматриваются вопросы интеграции произведений устного народного творчества в образовательный процесс, раскрытия их воспитательного содержания с учётом возрастных особенностей учащихся, а также педагогические подходы, направленные на усвоение национальных и общечеловеческих ценностей. Кроме того, обосновываются методические этапы, интерактивные методы использования фольклорных произведений и ожидаемые педагогические результаты.*

Ключевые слова: *устное народное творчество, национальное мышление, национальные ценности, этнопедагогика, интегративный подход, народная педагогика, нравственное воспитание, фольклор, методика обучения.*

Ethnopedagogical and integrative methodology for developing national thinking and values in students through folklore

Turdiyev Azizbek Anvarjonovich,
Independent Researcher at the A. Avloni National Institute of Pedagogical Excellence

Abstract: *This article explores the ethnopedagogical and integrative potential of developing students’ national thinking and values through oral folk art. It examines the integration of oral folk art into the educational process, the interpretation of its educational and moral content in accordance with students’ age characteristics, and pedagogical*

approaches aimed at fostering national and universal human values. Furthermore, the methodological stages, interactive methods, and expected pedagogical outcomes of using folklore in education are substantiated.

Keywords: *oral folk art, national thinking, national values, ethnopedagogy, integrative approach, folk pedagogy, moral education, folklore, teaching methodology.*

Ta'lim tizimidagi islohotlar sharoitida tarbiya natijasiga talab ham o'zgardi. Endi faqat tadbirlar soni yoki o'tkazilgan mash-g'ulotlar emas, o'quvchi shaxsida yuz bergan real o'zgarish muhim. Davlat ta'lim siyosatida yoshlarning ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ma'naviy immunitetini mustahkamlash vazifalari aniq belgilangan [1; 3]. 2026-yilda tasdiqlangan yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturi esa bu vazifalarni uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga yoyadi [4]. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, milliy madaniyatni qadrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi ham muhim hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi bu vazifalarni hal etishda katta imkoniyatga ega. Bu haqda K.D.Ushinskiy xalqning o'z zaminida qurilgan tarbiya alohida kuchga ega ekanini ta'kidlagan edi [20]. O'zbek xalq pedagogikasida ham og'zaki ijod asrlar davomida yosh avlod tarbiyasining asosiy vositasi bo'lib kelgan [13]. Doston, maqol, topishmoq, ertak va alla har biri o'z yo'li bilan bola qalbiga yo'l topadi [7].

Xalq og'zaki ijodi bu maqsadga erishishda katta imkoniyatlarga ega. Chunki folklor namunalarida xalqning axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi, orzu-intilishlari va tarbiya usullari mujassam. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish metodikasini ilmiy asoslash mavzuning muhim yo'nalishi bo'la oladi. Bu orqali milliy madaniy merosni yosh avlodga yetkazish, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani rivojlantirish, milliy qadriyatlarni quruq nasihat bilan emas, hayotiy misollar orqali anglatish, xalq og'zaki ijodini ona tili, adabiyot, tarix, tarbiya va san'at fanlari bilan integratsiyalash, folklor asosida o'quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Biroq xalq og'zaki ijodi namunalarini ta'lim jarayonida qo'llash faqat ularning mazmunini o'qib berish yoki yod oldirish bilan cheklanmasligi kerak. Ularning tarbiyaviy mohiyatini tahlil qilish, hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, o'quvchilarning mustaqil fikrini shakllantirish va turli fanlar mazmuni bilan uyg'unlashtirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, xalq og'zaki ijodiga etnopedagogik va integrativ yondashuv asosida murojaat qilish muhim metodik ahamiyatga ega.

Etnopedagogika xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari va tarbiyaviy qarashlarini o'rganish hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlarini ochib beruvchi yo'nalishdir. Xalq og'zaki ijodi esa ushbu tajribaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Folklor namunalarida inson va jamiyat munosabatlari, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, mehnat va dangasalik kabi tushunchalar badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Bunday qarama-qarshiliklar o'quvchilarga axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish va mustaqil xulosa chiqarish imkonini yaratadi. Masalan, xalq ertaklarida mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat va yaxshilikning qadrlanishi ko'p uchraydi.

Maqollarda esa xalqning hayotiy tajribasi qisqa va mazmunli shaklda ifodalanadi. “Mehnatning tagi – rohat”, “Yaxshilik qil, dengizga sol” kabi maqollar o‘quvchilar bilan mehnat, ezgulik va beg‘arazlik mavzularida suhbat tashkil etish uchun foydalanilishi mumkin.

Doston va rivoyatlar esa qahramonlik, sadoqat, yurtga muhabbat, insoniy burch va jamoaviy mas’uliyat masalalarini muhokama qilishga imkon beradi. Bunda pedagogning vazifasi folklor namunasidagi g‘oyani tayyor xulosa sifatida taqdim etish emas, balki o‘quvchini uning mazmunini anglash, asoslash va bugungi hayot bilan bog‘lashga yo‘naltirishdan iborat. Shu tariqa, xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilarning milliy madaniyat haqidagi bilimlarini boyitish bilan birga, ularning qadriyatlarga ongli munosabatini rivojlantirish uchun ham pedagogik imkoniyat yaratadi.

Integrativ yondashuv xalq og‘zaki ijodi namunalarini turli o‘quv fanlari va tarbiyaviy faoliyat bilan uzviy bog‘lashni nazarda tutadi. Masalan, bitta ertak yoki doston ona tili darsida leksik va nutqiy tahlil, adabiyot mashg‘ulotida obrazlar tavsifi, tarix darsida tarixiy-madaniy kontekst, tarbiya mashg‘ulotida esa axloqiy qadriyatlar muhokamasi uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchining bir mavzuga turli nuqtayi nazardan qarashini ta’minlaydi. Natijada u folklor namunasini shunchaki badiiy matn sifatida emas, balki xalqning hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qarashlarini ifodalovchi madaniy manba sifatida idrok etishga o‘rganadi.

Maqolada berilayotgan g‘oyaning eng muhim qismi aynan shu metodikani ishlab chiqishdir. Metodika shunchaki usullar ro‘yxati bo‘lmasligi, balki o‘zaro bog‘langan bosqichlar, vositalar, topshiriqlar va baholash mezonlaridan tashkil topishi kerak. Etnopedagogik-integrativ metodikani quyidagi o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida tashkil etish mumkin:

1-bosqich. Mazmunni tanlash bosqichi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va dars maqsadidan kelib chiqib, mos folklor namunalari tanlanadi.

2-bosqich. Milliy qadriyatlarni aniqlash bosqichi. Tanlangan matnda aks etgan axloqiy, ma’naviy va madaniy g‘oyalar belgilanadi.

3-bosqich. Integratsiyalash bosqichi. Folklor namunasi tegishli fanlar mazmuni va tarbiyaviy vazifalar bilan bog‘lanadi: ona tili + adabiyot + tarix + tarbiya.

4-bosqich. Faol o‘zlashtirish bosqichi. Munozara, muammoli savollar, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish va ijodiy topshiriqlardan foydalaniladi.

5-bosqich. Refleksiya va baholash bosqichi. O‘quvchilar o‘z xulosalarini ifodalaydi, o‘rgangan qadriyatlarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydi va o‘z fikrlarini asoslaydi. Ushbu bosqichlarning izchil qo‘llanilishi xalq og‘zaki ijodini ta’lim jarayonining mazmunan va metodik jihatdan faol tarkibiy qismiga aylantirishga yordam beradi.

An’anaviy yondashuvda o‘quvchi bir oyda dostonlarni, boshqa oyda maqollarni o‘rganadi va bir janrdagi g‘oya ikkinchisi bilan bog‘lanmay qoladi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik tizimda esa har bir mavzu bitta yetakchi qadriyat atrofida bir nechta janrni birlashtiradi (1-jadval). Dostonlar tanlovida ularning kontent-tahlili natijalari, xususan, “Alpomish” dostonining yetti qadriyat guruhini to‘liq qamrab olishi hisobga olindi [12].

Mavzular bir-biri bilan bog‘liq va ma’lum mantiqiy yo‘lni hosil qiladi: Vatan tuyg‘usidan boshlanib, oila, mehnat va axloqiy fazilatlar orqali ilm bilan o‘zini takomillashtirishgacha boradi. Metodik tizim qat’iy qolip emas: o‘qituvchi mavzuga mos boshqa materiallarni qo‘shishi, o‘z mintaqasiga xos og‘zaki ijod namunalarini kiritishi mumkin.

Har bir mavzu ichida janrlar ma’lum izchillikda qo‘llanadi. Bu izchillik milliy qadriyat-

1-jadval.

Qadriyatlar bo'yicha mavzular tizimi

Mavzu	Yetakchi qadriyat	Doston materiali	Maqol (namuna)	Topishmoq, ertak va boshqa janrlar
"Vatan – muqaddas"	Vatanparvarlik	"Alpomish": yurtga qaytish; "Qirq qiz"	"Elga xizmat – oliy himmat"	Yurt haqidagi rivoyatlar, qo'shiqlar
"Oila – muqaddas qo'rg'on"	Oilaga sadoqat, kattalarga hurmat	"Kuntug'mish"; "Alpomish": Barchin epizodlari	"Qush uyasida ko'rganini qiladi"	Alla, oilaviy rivoyatlar
"Mehnat – hayot asosi"	Mehnatsevarlik	Qahramonlarning hunari va sinovlari	"Ishlagan tishlaydi", "Hunarli kishi xor bo'lmas"	Mehnat qurollari haqidagi topishmoqlar
"Halollik va to'g'riso'zlik"	Halollik, rostgo'ylik	"Alpomish": Qultoyning vafodorligi	"Aytilgan so'z – otilgan o'q"	Rostgo'y qahramon haqidagi ertaklar
"Ahdga vafo va do'stlik"	Sadoqat, do'stlik	"Alpomish": Alpomish va Qorajon; "Ravshan"	"Daraxt – ildizi bilan, odam – do'stlari bilan"	Do'stlik haqidagi ertaklar
"Adolat va vijdon"	Adolat, vijdon	"Go'ro'g'li" turkumi	"Vijdondan kechgan yiqilar"	"Axloqiy topishmoqlar", latifalar
"Mehr-oqibat"	Mehr-oqibat, bag'rikenglik	"Go'ro'g'li": zaiflarni himoya qilish	"Bir shirin so'z bitkazar ming ko'ngilning yarasin"	"Shamol" topishmog'i
"Ilm va zukkolik"	Ilmga intilish, aql-zakovat	"Malika Ayyor"	"Aql – yoshda emas, boshda"	Mantiqiy va refleksiv topishmoqlar

larning rivojlanish trayektoriyasini bitta mavzu miqyosida takrorlaydi (1-rasm). Mavzu doston epizodi orqali hissiy taassurot uyg'otishdan boshlanadi, maqol orqali xulq qoidasiga aylantiriladi, topishmoq, ertak yoki axloqiy vaziyat orqali turli holatlarda qo'llashga o'rgatiladi va oilaviy topshiriq orqali hayotga ko'chiriladi.

Masalan, "Ahdga vafo va do'stlik" mavzusi "Alpomish" dostonidagi Alpomish va Qorajon do'stligi epizodi bilan boshlanadi. So'ng "Daraxt – ildizi bilan, odam – do'stlari bilan" maqoli tahlil qilinib, his-tuyg'u aniq xulq mezoniga aylantiriladi. Keyin do'stlik haqidagi ertak yoki axloqiy vaziyat orqali o'quvchi bu mezonni turli holatlarda qo'llaydi. Nihoyat, "Mening do'stim" oilaviy topshirig'i qadriyatni o'quvchining shaxsiy va oilaviy tajribasi bilan bog'laydi.

Integrativ yondashuv xalq og'zaki ijodining bir necha fan mazmuniga singdirilishida ham ko'rinadi (2-jadval). Bu yondashuv umumiy o'rta ta'limning milliy va umum-



1-rasm. Bitta mavzu doirasida janrlarning izchilligi va rivojlanish trayektoriyasi (“Ahdga vafo va do‘stlik” mavzusi misolida)

2-jadval.

Xalq og‘zaki ijodi asosida fanlararo integratsiya

Fan	Janrlar	Yetakchi qadriyatlar	Mavzu namunalari
Ona tili va adabiyot	Doston, ertak, maqol, topishmoq	Vatanparvarlik, halollik, nutq madaniyati	“Alpomish” – ahdga vafo timsoli; maqollarning badiiy tuzilishi
“Tarbiya”	Maqol, ertak, rivoyat	Oilaga hurmat, mehr-oqibat, adolat	“Oila – muqaddas qo‘rg‘on”; “Aytilgan so‘z – otilgan o‘q”
Tarix	Qahramonlik dostonlari, tarixiy rivoyatlar	Tarixiy xotira, milliy g‘urur	Dostonlarda aks etgan tarixiy voqelik
Tabiatshunoslik	Topishmoqlar, mavsumiy qo‘shiqlar	Tabiatga hurmat, kuzatuvchanlik	Ob-havo hodisalari haqidagi topishmoqlar
Musiqa	Baxshichilik, lapar, alla, marosim qo‘shiqlari	Milliy san’atga muhabbat, estetik did	Baxshilar ijrosi; Navro‘z qo‘shiqlari
Tasviriy san’at	Ertak va dostonlar	Estetik did, qahramonga havas	Ertak va doston qahramonlari obrazini chizish

madaniy kompetensiya talablariga ham mos keladi [2].

Fanlararo integratsiya o‘quvchiga bitta qadriyatni turli fanlar orqali turli tomondan ko‘rish imkonini beradi. Biroq u fan o‘qituvchilarining o‘zaro kelishuvini va mavzular tizimi asosida muvofiqlashtirilgan rejalashtirishni talab qiladi. Shu sababli faoliyat-metodik blokdagi metodlar milliy tafakkurning uch tarkibiy qismiga ta’siriga ko‘ra guruhlandi. Kognitiv qismni rivojlantirishda maqol va topishmoq tahlili, “belgilar jadvali”, qiyosiy tahlil; motivatsion-qadriyatli qismni rivojlantirishda baxshi ijrosini tinglash, ifodali o‘qish, sahnalashti-

rish, avlodlararo uchrashuvlar; faoliyat-xulqiy qismni rivojlantirishda esa axloqiy dilemmalar, maqolni vaziyatga tatbiq etish, oilaviy topshiriqlar va mahalla tadbirlari ustuvor bo‘ladi. Bu tasnif teskari aloqani aniq metodik mazmun bilan to‘ldiradi. Agar sinfda kognitiv mezon bo‘yicha ko‘rsatkich past bo‘lsa, birinchi guruh usullari ko‘proq qo‘llanadi; motivatsion-qadriyatli mezonda muammo bo‘lsa, ikkinchi guruh usullari ustuvor bo‘ladi. Shu tariqa tarbiyaviy jarayon o‘quvchilarning real ehtiyojlariga moslashadi.

Etnopedagogik-integrativ yondashuvning samaradorligi tanlangan pedagogik metodlarning maqsadga muvofiqligiga ham bog‘liq. Shu sababli folklor namunalarini o‘rganishda o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qiladigan metodlardan foydalanish muhimdir.

Birinchidan, **muammoli savol va munozara metodi** o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ertak yoki doston qahramonining qarori muhokama qilinib, uning xatti-harakatlari, motivlari va oqibatlari tahlil etiladi.

Ikkinchidan, **rolli o‘yin va sahnalashtirish** metodi o‘quvchilarga qahramonlar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish, turli nuqtayi nazarlarni tushunish va axloqiy qarorlarning mohiyatini anglash imkonini beradi.

Uchinchidan, **maqollar asosidagi tahlil** usuli xalq hikmatlarining mazmunini izohlash, ularni hayotiy misollar bilan asoslash va bir-biriga yaqin yoki farqli ma’nolarini qiyoslashga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchidan, **ijodiy loyiha metodi** orqali o‘quvchilar oilaviy yoki mahalliy muhitda saqlanib kelayotgan maqollar, rivoyatlar va xalq hikmatlarini to‘plashlari, ularning mazmunini o‘rganishlari hamda natijalarni taqdimot shaklida ifodalashlari mumkin. Bunda folklor namunalarining manbasi va mahalliy variantlarini qayd etish muhimdir. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotda o‘quvchilarga qahramonlarning xatti-harakatlarini qiyoslash, ularda namoyon bo‘lgan fazilatlarni aniqlash va ertak g‘oyasini bugungi hayot bilan bog‘lash topshirig‘i berilishi mumkin. O‘quvchilar ertakdagi vaziyatlarni muhokama qilish orqali mehnatsevarlik, halollik va adolatning ahamiyati haqida mustaqil xulosa chiqaradilar. Bunda ertak mazmunini tahlil qilish bilan cheklanmay, uning turli variantlari, xalqning axloqiy qarashlari va zamonaviy hayotdagi qo‘llanish imkoniyatlarini ham muhokama qilish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini va madaniy merosga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy tafakkur va qadriyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun aniq pedagogik mezonlarga tayanish lozim. Bunda o‘quvchining folklor haqidagi bilimlari bilan bir qatorda, qadriyatlarni anglash darajasi, mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatdagi ishtiroki ham hisobga olinadi.

Baholash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin:

Bilish mezoni: folklor namunalari, ularning mazmuni va milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar.

Tahliliy mezon: qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, fikrni dalillash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati.

Qadriyaviy mezon: milliy madaniy merosga qiziqish va qadriyatlarga ongli munosabat.

Amaliy mezon: hamkorlik, hurmat, mas’uliyat va boshqa ijobiy fazilatlarni tegishli vaziyatlarda namoyon etish. Mazkur mezonlarni kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, tahliliy topshiriqlar va ijodiy ishlar yordamida o‘rganish mumkin. Agar metodikaning samaradorligi haqida qat’iy ilmiy xulosa chiqarish maqsad qilinsa, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar taqqoslanadigan pedagogik tajriba-sinov tash-

kil etilishi zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, qadriyatlarni rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uni faqat bitta test yoki qisqa muddatli mashg‘ulot natijasida to‘liq baholab bo‘lmaydi. Shu sababli turli baholash vositalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilarda milliy tafakkur, madaniy o‘zlikni anglash va qadriyatlarga hurmatni rivojlantirish uchun muhim tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Unda mujassam bo‘lgan xalq tajribasi, axloqiy qarashlar va badiiy obrazlar o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashiga yordam beradi.

Xullas, xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning etnopedagogik-integrativ metodikasi folklor namunalarini tanlash, ularning tarbiyaviy mazmunini aniqlash, fanlararo integratsiya, faol o‘quv metodlari va refleksiv baholashni o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni tayyor axloqiy xulosalarni qabul qiluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, asoslovchi va hayotiy vaziyatlarga tatbiq etuvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltiriladi. Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodini ta’lim jarayoniga maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda integratsiyalash milliy madaniy merosni o‘rganish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil tafakkuri, ma’naviy-axloqiy qarashlari va qadriyaviy munosabatlarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy tafakkur va qadriyatlarni rivojlantirishning etnopedagogik-integrativ metodikasi ta’limning barcha bosqichlarida uzviylik, izchillik va fanlararo hamkorlik asosida amalga oshirilishi lozim. Ya’ni, metodikani samarali tashkil etish uchun xalq og‘zaki ijodi namunalarini ta’lim oluvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va ta’lim bosqichlariga mos ravishda tanlash, ularni fanlararo integratsiya asosida o‘qitish hamda milliy qadriyatlarni kundalik hayot bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Bunda folklor namunalari nafaqat bilim berish vositasi, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, milliy o‘zligini anglash va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish omili sifatida qaraladi. Jumladan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichi ta’lim oluvchilarida ertaklar, alla, maqollar, topishmoqlar va bolalar qo‘shiqlaridan foydalanib, bolalarda mehr-oqibat, kattalarga hurmat, tabiatga ehtiyotkorlik va milliy o‘zlik tuyg‘ularini shakllantirish va “Ertaklar olamiga sayohat”, “Maqolni davom ettir” kabi o‘yinli mashg‘ulotlarni tashkil etish, milliy urf-odatlar aks etgan sahna ko‘rinishlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga “Xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi” modulini kiritish ham shu shartlarni ta’minlashga xizmat qiladi [17].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori. 2017-yil 6-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi".

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 34-son qarori. 2026-yil 28-yanvar.

5. Berkowitz M.W., Bier M.C. What Works in Character Education: A Research-Driven Guide for Educators. – Washington, DC: Character Education Partnership, 2005.

6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

7. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.

8. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish: Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 1998.

9. Krathwohl D.R., Bloom B.S., Masia B.B. Taxonomy of Educational Objectives. Handbook II: Affective Domain. – New York: David McKay, 1964.

10. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.

11. Mahkamova Sh. O'rtacha maktab yoshidagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

12. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.

13. Toshmatov Sh. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

14. Turdiyev A.A. Xalq epik merosi (doston va maqollar)ning o'quvchilar xulq-atvor madaniyatini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari // Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – Toshkent, 2026. – № 8. – B. 42–49.

15. Turdiyev A.A. Xalq og'zaki ijodi janrlarining tasnifi va ta'limda yosh xususiyatlariga ko'ra differensial yondashuv metodikasi // Filologiya va pedagogika. – 2026. – № 13 (32). – B. 100–102.

16. Turdiyev A.A. O'zbek xalq maqollarining o'quvchilar xulq-atvor madaniyatini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar: ilmiy va ilmiy-texnik onlayn konferensiya materiallari. – 2026. – Vol. 40. – B. 102–105.

17. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. – Toshkent: Moliya, 2006.

18. Волков Г.Н. Этнопедагогика. – Москва: Академия, 1999.

19. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. – Москва: Либроком, 2010.

20. Ушинский К.Д. О народности в общественном воспитании // Педагогические сочинения: В 6 т. Т. 1. – Москва: Педагогика, 1990.

21. Штофф В.А. Моделирование и философия. – Москва; Ленинград: Наука, 1966.